



AHOLI DAROMADLARI O'SISHING IQTISODIY BARQARORLIKDAGI ROLI

Izzatullayeva Zaxro

Denov tadbirkorlik va pedagogik institute talabasi izzatullayevazaxro@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bugungi kun va kelajak taraqqiyoti, xalq farovonligi, turmush sifatini belgilab beruvchi iqtisodiyot sohasining o'sish sur'ati, rivojlanish darajasi va uning mamlakat aholisi daromadlari bilan bog'liqligi o'rganilgan. Shuningdek, iqtisodiy o'sish sifatining aholi daromadlariga ta'sirini o'rgangan tadqiqotchi olimlar nazariyalari jamlangan. Mamlakatda iqtisodiy o'sish jarayoni amal qilganda unga mutanosib ravishda aholining real daromadlari miqdori ham o'sishiga erishish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Kalit so'zlar: aholi daromadi, aholi o'sishi, o'sishining sifati, foyda, harid, xarajatlar, asosiyg'oyalar, iqtisodiy. nazaryalar.

KIRISH

Respublikamiz hududlari bo'yicha iqtisodiy o'sish va demografik o'zgarishlar o'rganilgan va statistik tahlil qilingan bo'lib, bugungi kunda XX asr o'rtalariga nisbatan dunyo aholisi soni uch baravar ko'paydi. Ya'ni, 1950-yilda 2,5 milliard kishi bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 8,0 milliardga yetdi.

Jumladan, 2010-yildan buyon 1 milliard kishi, 1998-yildan buyon esa 2 milliard kishi qo'shildimilliarddan oshishi uchun 70 yildan ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Iqtisodiy o'sish to'liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab Jahon tajribalaridan ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishning asosiy belgilaridan biri sifatida iqtisodiy o'sish sifati va aholi daromadlari oshirilishining bir-biriga sezilarli ta'sir ko'rsatishini olish mumkin.

Bundan tashqari, aholi daromadlarining miqdori turmush farovonligining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. 1950-yildan buyon odamlar soni ikki baravar ko'payib, 5 milliarddan oshib ketishi uchun taxminan 37 yil kerak bo'ldi.

Bu tendensiya shunday davom etsa, dunyo aholisi yana ikki baravar ko'payib, 2059-yilga kelib 10 chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o'sishidir. Iqtisodiy davlat iqtisodiy qudrati va insonlar farovonligining o'sishida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatning yaxshilanishida va tarkibining takomillashu-vida ham ifodalanadi. Aholi daromadlarining tabiiyati va sabablarining o'rganishiga o'tgan asir dovomida yirik iqtisodchilar ishlaridan kuzatish keraki.

A.Smit mehnat va qiymat nazariyasining asoschilaridan biri bo'lib, yaratilgan milliy daromadni ish haqi oluvchi yollanma ishchilar (zarur yashash vositalari qiymati) va foyda oluvchi tadbirkorlar o'rtasida taqsimlash jarayonlarini ko'rib chiqdi, bu esa, o'z navbatida, ishchilarning to'lanmagan mehnati natijasida yaratilgan.

D.Rikardo yollanma ishchilar, tadbirkorlar va yer egalari o'rtasidagi daromadlarni taqsimlashdagi qara-ma-qarshiliklarni tahlil qilib, ularning manfaatlarini ustun qo'ydi,



chunki ular kelajakda iqtisodiy o'sish uchun asos bo'lgan kapital jam'arishni amalga oshiradilar.

K.Marks qo'shimcha qiymat nazariyasiga tayanib, ayniqsa, daromadlarni taqsimlash sohasida aniq nam-oyon bo'ladigan kapital va mehnat o'rtasidagi antagonistik qarama-qarshiliklarni ko'rsatdi

J.B.Say daromadlarni taqsimlashni o'rganishda "uchta ishlab chiqarish omili tushunchasini taklif qildi, unga ko'ra ishchilar, tadbirkorlar va yer egalarining xizmatlari bozorda ish haqi, foydaga talab va taklif hamda yer ijarasi qonunlariga muvofiq ayirboshlanadi.

J.B.Klark taqsimot munosabatlarini ko'rib chiqayotib, ishlab chiqarishning uchta omilidan (mehnat, yer, kapital) foydalanganlik uchun to'lovning ish haqi, renta, foiz ko'rinishidagi ularning chegaraviy mahsuldorlik darajalariga mos kelishi tamoyilini himoya qildi.

L.Vairas iqtisodiy-matematik modellashtirish asoschilaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish omillaridan foydalanishdan olinadigan daromadni ularning chegaraviy unumdorligi bilan moslashtirish tamoyilini rasmiylashtira oldi, bu esa o'zi ishlab chiqqan umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasiga asos bo'ldi

Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish bilan axoli daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik mamlakatimizning ko'plab iqtisodchi olimlarining tadqiqot mavzulari bo'lib kelmoqda.

Mamatkulov Tuxta Daminovich mamlakatning iqtisodiy o'sishi bevosita aholining demografik o'zgarishlari (aholi sonining o'sishi, turmush tarzi, insonlar taraqqiyoti va boshqalar)ga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda iqtisodiy o'sishinson taraqqiyoti o'zaro teskari ijobiy aloqaga ega". Damirjon Odilovich Alimov tomonidan barqaror iqtisodiy rivojlanishni saqlab qolgan holda mamlakat qishloq hududlari aholisini daromadini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini rag'batlantirib iqtisodiy faol qatlamga o'tkazish, mamlakat aholisida kam ta'minlanganlarning ulushi keltirilib, mamlakatlar iqtisodiy ko'rsat-kichlari O'zbekiston iqtisodiyoti bilan taqqoslangan holda muhokama qilingan. Shu asnoda qishloq hududlari aholisi daromadini oshirib kambag'allik darajasini qisqartirish uchun xulosa va takliflar berilgan,

Boymatov X.Q. mamlakatda ish o'rinlarining yaratilishi, tadbirkorlik muhitining vujudga kelishi, mulkchilik sohasidagi islohatlar davlatimiz budjetining daromadlar qismining oshishiga, ularning ijtimoiy sohadagi sarf xarajatlari uchun manblarning shakllanishiga olib keladi, deb hisoblaydi".

Asosiy qism

Daromad — keng ma'noda kirim bo'lgan har qanday pul mablag'lari yoki pul qiymatiga ega bo'lgan moddiy boyliklarni olish, iqtisodiy subyekt o'z faoliyati natijasiga kura oladigan pul va tovar — moddiy tushum. Daromad pul va moddiy shaklga ega bo'lib, ularning yig'indisi jami daromadni hosil qiladi. Daromad egalik nuqtai nazaridan aholi daromadi, korxona (korporativ) daromadi va davlat daromadiga bo'linadi. Aholiga tegadigan daromad ish haqi, foyda, foiz, renta, dividend shakllariga ega barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko'rsatilgan bepul xizmatlar summasi; aholining milliy daromaddagi hissasi. Aholining jami turdagi daromadlari manbai



— ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mu-kofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug'i, bank to'lagan foiz puli, ko'chmas mulkdan kelgan renta to'lovi va ija-ra puli, sug'urta qoplamalari va boshqalardan iborat. Bozor sharoitida Aholi daromadlarining eng katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o'zining tomorqa xo'jaligidan ham mahsulot olib daromad ko'radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko'rsatiladi (bepul ovqatlanish, kiyim-kechak, doridarmon, transport va kom-munal xizmati va hokazo); bular natural daromadlar hisoblanadi. Aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo'linadi. Nominal daromad aholi muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo'lib, inflyatsiya ta'sirida uning xarid qobiliyati pasay-ishi mumkin. Real daromad — pul shaklidagi daromadga amalda qanday miqdorda iste'mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko'rsatadi. Aholi jon boshiga hisoblangan real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan va yaxlit ko'rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiyotda aholi yalpi pul daromadlaridan barcha majburiy va ixtiyoriy to'lovlar (soliqlar, qarz puli, badallar) chegirib tashlangandan so'ng uning qo'liga tegadigan daromad ham muhim ahamiyatga ega. Aholi daromadi o'sishi bilan iqtisodiyotda ayrim momlar hali bo'lishi mumkin. Bular ishsizlik kamayishi, iqtisodiyot rivojlanishi, YIM rivojlanishi, Ko'plabi insonlar o'zi daromadiga ega bo'lishi mumkin lekin yomon tomonlari ham mavjud. Inflyatsiya bosimi — daromadlar oshsa, talab ham ortadi; ishlab chiqarish tomonidan taklif tez qarshi kelmasa narxlar ko'tarilishi (inflyatsiya) mumkin. Ishlab chiqarish resurslariga bosim (resurslarning cheklanganligi) — ko'proq iste'mol energiya, suv, xomashyo talabini oshiradi; bu resurslar qimmatlashuviga va yetishmovchilikka olib kelishi mumkin. Atrof-muhitga zarar — yuqori daromad va iste'mol chiqindilar, chiqindilarni ko'payishi va ekologik degradatsiyaga sabab bo'lishi mumkin. Iqtisodiy tengsizlikning kuchayishi — daromad o'sishi jamiyat bo'ylab teng taqsimlanmasa, boy va kambag'al kesimi orasidagi tafovut ortadi. Dutch disease (valyuta/soha qaramligi) — ma'lum sektor (masalan, tabiiy resurslar yoki eksport) daromad keltirsa, boshqa sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini yo'qotishi mumkin. Mehnat bozori muvozanatsizligi — ba'zi sohalarda ish haqi tez oshib, boshqa sohalarda ishchi topishda qiyinchiliklar yoki mehnat migratsiyasi yuzaga keladi; strukturaviy ishsizlik paydo bo'lishi mumkin. Aktivlar pufakchalari (bozor baloni) — ko'proq pul va kredit oqimi ko'chmas mulk yoki aktsiyalarga yo'naltirilsa, narxlar sun'iy ko'tarilib, keyin kutilmagan tushish bo'lishi mumkin. Iste'molning ortishi va mahalliy ishlab chiqarishga ta'siri — import talabining oshishi milliy sanoatni sustlashtirishi mumkin (mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatga dosh bera olmasligi). Jamoat xarajatlari bosimi — daromadlar oshishi bilan hukumat xizmatlar va ijtimoiy kafolatlarni kengaytirishi kutiladi; bu byudjetga qo'shimcha bosim keltirishi mumkin. Madaniy va ijtimoiy muammolar — tez o'sish urbanizatsiya, infratuzilma bosimi, yo'qotilgan an'anaviy qadriyatlar yoki ijtimoiy taranglik keltirib chiqarishi mumkin.

Aholi daromadi o'sishi bilan iqtisodiyotda ayrim momlar hali bo'lishi mumkin. Bular ishsizlik kamayishi, iqtisodiyot rivojlanishi, YIM rivojlanishi, Ko'plabi insonlar o'zi daromadiga ega bo'lishi mumkin lekin yomon tomonlari ham mavjud. Inflyatsiya bosimi —



daromadlar oshsa, talab ham ortadi; ishlab chiqarish tomonidan taklif tez qarshi kelmasa narxlar ko'tarilishi (inflyatsiya) mumkin.

Ishlab chiqarish resurslariga bosim (resurslarning cheklanganligi) — ko'proq iste'mol energiya, suv, xomashyo talabini oshiradi; bu resurslar qimmatlashuviga va yetishmovchilikka olib kelishi mumkin.

Atrof-muhitga zarar — yuqori daromad va iste'mol chiqindilar, chiqindilarni ko'payishi va ekologik degradatsiyaga sabab bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy tengsizlikning kuchayishi — daromad o'sishi jamiyat bo'ylab teng taqsimlanmasa, boy va kambag'al kesimi orasidagi tafovut ortadi. Dutch disease (valyuta/soha qaramligi) — ma'lum sektor (masalan, tabiiy resurslar yoki eksport) daromad keltirsa, boshqa sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini yo'qotishi mumkin. Mehnat bozori muvozanatsizligi — ba'zi sohalarda ish haqqi tez oshib, boshqa sohalarda ishchi topishda qiyinchiliklar yoki mehnat migratsiyasi yuzaga keladi; strukturaviy ishsizlik paydo bo'lishi mumkin.

Aktivlar pufakchalari (bozor baloni) — ko'proq pul va kredit oqimi ko'chmas mulk yoki aktsiyalarga yo'naltirilsa, narxlar sun'iy ko'tarilib, keyin kutilmagan tushish bo'lishi mumkin. Iste'molning ortishi va mahalliy ishlab chiqarishga ta'siri — import talabining oshishi milliy sanoatni sustlashtirishi mumkin (mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatga dosh bera olmasligi). Jamoat xarajatlari bosimi — daromadlar oshishi bilan hukumat xizmatlar va ijtimoiy kafolatlarni kengaytirishi kutiladi; bu byudjetga qo'shimcha bosim keltirishi mumkin.

Madaniy va ijtimoiy muammolar — tez o'sish urbanizatsiya, infratuzilma bosimi, yo'qotilgan an'anaviy qadriyatlar yoki ijtimoiy taranglik keltirib chiqardi. Aholi daromadlari — bu fuqarolarning mehnat faoliyati, tadbirkorlik, pensiya, nafaqa, mulkdan olinadigan foyda yoki boshqa manbalardan oladigan pul tushumlaridir. Daromadlar o'sishi iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Ichki iste'mol va ishlab chiqarish o'sishi.

Aholi daromadlari oshgan sari ularning xarid qobiliyati kengayadi. Bu esa ichki bozor hajmini kengaytiradi va ishlab chiqaruvchilarni ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga undaydi. Natijada iqtisodiyotda o'sish sur'atlari tezlashadi.

2. Byudjet daromadlari ortishi.

Aholi daromadlarining o'sishi soliqlar tushumini ko'paytiradi. Davlat bu mablag'lar hisobidan infratuzilma, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarini rivojlantiradi. Shu orqali ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Ijtimoiy tenglik va farovonlik.

Aholi daromadlarining teng taqsimlanishi ijtimoiy muvozanatni ta'minlaydi, kambag'allik darajasi pasayadi va ijtimoiy adolat kuchayadi.

3. Investitsiyalar va jamg'armalar ko'payishi.

Daromad ortgan fuqarolar ko'proq jamg'arma qilishadi, bu esa bank tizimiga yangi investitsiya manbai yaratadi. Ular o'z bizneslarini yo'lga qo'yish yoki mavjud korxonalarni kengaytirish orqali iqtisodiy faollikni oshiradi.

4. Ijtimoiy tenglik va farovonlik.



Aholi daromadlarining teng taqsimlanishi ijtimoiy muvozanatni ta'minlaydi, kambag'allik darajasi pasayadi va ijtimoiy adolat kuchayadi.

Taklif

1. Aholi daromadlari o'sishini ta'minlashda eng avvalo yangi ish o'rinlarini yaratish muhim hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholining bandligi oshadi va bu iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

2. Ish haqlarini mehnat unumdorligiga mos ravishda oshirib borish zarur. Bu aholining sotib olish qobiliyatini kuchaytiradi va ichki bozorning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

3. Ta'lim va kasb-hunar tizimini rivojlantirish orqali aholining bilim va malakasini oshirish mumkin. Natijada yuqori daromadli ish joylari ko'payadi va iqtisodiyotda malakali mehnat resurslari shakllanadi.

4. Ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish orqali kam daromadli aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash lozim. Nafaqa va ijtimoiy yordamlarning barqarorligi aholining daromadlarini muvozanatli ushlab turadi

5. Investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish tezlashadi. Bu esa aholining daromadlari oshishiga va mamlakat iqtisodiy barqarorligining ta'minlanishiga

1. Aholi daromadlarining tez o'sishi inflyatsiya darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Bu holatda narxlar ko'tarilib, daromadlar o'sishining ijobiy ta'siri kamayadi.

2. Daromadlar o'sishi barcha aholi qatlamlari o'rtasida teng taqsimlanmasligi mumkin. Natijada ijtimoiy tengsizlik kuchayib, iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi

3. Ish haqlarining sun'iy ravishda oshirilishi ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Bu esa ayrim korxonalarning raqobatbardoshligini pasaytiradi.

4. Davlat tomonidan daromadlarni oshirish maqsadida beriladigan subsidiyalar va ijtimoiy to'lovlar byudjetga ortiqcha yuk bo'lishi mumkin. Bu davlat moliyaviy barqarorligiga xavf tug'diradi.

5. Daromadlar o'sishiga haddan tashqari tayanish mehnat unumdorligini oshirmasdan iste'molning ortishiga olib kelishi mumkin. Natijada iqtisodiy o'sish qisqa muddatli bo'lib qoladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, aholi daromadlarining o'sishi — mamlakat iqtisodiy barqarorligining asosiy omillaridan biridir. Bu jarayon iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning kengayishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi. Shu sababli, davlatning har bir iqtisodiy siyosati aholining real daromadini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (2023–2024-yillar).



3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlar yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. Xodjayev B., Abdurahmonov Q. Makroiqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. Internet manbalari: www.stat.uz, www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma'lumotlari.
8. Mankiw N.G. Macroeconomics. — Harvard University.
9. Samuelson P., Nordhaus W. Economics. — McGraw-Hill.